

**“10% oshirilgan keshbek”
AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI**

2024-yil “22”-oktyabr

1. Ushbu Qoidalar “10% oshirilgan keshbek” nomli rag‘batlantiruvchi Aksiyani o‘tkazish shartlarini, uning ishtirokchilarini aniqlash tartibini, huquq va majburiyatlarini, shuningdek ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan boshqa shartlarni belgilaydi va “A-Pay” elektron pullar tizimida Aksiyani o‘tkazish Qoidalari uchun majburiy Ilova hisoblanadi.
2. Rag‘batlantiruvchi Aksiyaning nomi: “10% oshirilgan keshbek” (matnda keyingi o‘rinlarda – Aksiya).
3. Aksiya tashkilotchisi: “CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” AJ – “A-Pay” elektron pullar tizimi operatori.
4. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi, Ishtirokchilardan ishtirok uchun to‘lov kiritishni talab qilmaydi.
5. Aksiyada ishtirok etish majburiy hisoblanmaydi.
6. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
7. Aksiyani o‘tkazish muddati: 2024-yil “22”-oktyabr (soat 00.01) dan 2024-yil “31”-dekabr (soat 23.59) gacha.
8. Aksiyani o‘tkazishdan maqsad: Elektron pullarni ommalashtirish va targ‘ib qilish, shuningdek, Tashkilotchi tomonidan taklif etiladigan xizmatlar va servislarga sodiqlikni oshirish.
9. Aksiya ishtirokchilari: Aksiya boshlanganidan keyin Tizimda ro‘yxatdan o‘tgan va identifikatsiyadan o‘tgan “A-Pay” elektron pullar tizimi (matnda keyingi o‘rinlarda – Tizim) mijozlari.
10. Ishtirokchilarni Aksiya shartlari to‘g‘risida xabardor qilish tegishli ma‘lumotlarni Tashkilotchining <https://www.a-pay.uz> manzilidagi rasmiy veb-sahifasida joylashtirish yo‘li bilan, shuningdek boshqa usullar bilan amalga oshiriladi.
11. Aksiya Ishtirokchisiga aylanish uchun Aksiya o‘tkazilayotgan davrda Tizimda ro‘yxatdan o‘tish va Tizimning identifikatsiyalangan Mijozi maqomini olgan holda Tizimda Operator tomonidan o‘rnatilgan identifikatsiyalash tartib-taomillaridan o‘tish kerak.
12. Aksiyani o‘tkazish doirasida Ishtirokchiga “A-Pay” mobil ilovasida to‘lovlarni quyidagi toifalarda amalga oshirganlik uchun to‘lov summasidan 10% keshbek olish imkoniyati taqdim etiladi: kommunal xizmatlar, davlat xizmatlari, uyali aloqa, Internet, TV, transport, muddatli to‘lovlarni to‘lash, ta‘lim, e‘lonlar, sug‘urta polislari, internet-do‘konlar.
13. Aksiyani o‘tkaziladigan butun davr mobaynida har bir Ishtirokchi uchun belgilanadigan keshbek limiti 50.000 (ellik ming) elektron pulni tashkil etadi. Keshbek Operator tomonidan “Keshbek-hamyon”ga avtomatik ravishda hisoblanadi. Keshbek summasidan faqatgina “Keshbek” Sodiqlik dasturi qoidalari doirasida identifikatsiya qilingan Tizim Mijozlari foydalanishlari mumkin.
14. 10% miqdoridagi oshirilgan keshbek joriy keshbeklarni hisoblash tizimiga qo‘shib hisoblanmaydi. Aksiya o‘tkazilishi davrida keshbekni hisoblashda birinchi bo‘lib “10% oshirilgan keshbek” hisoblanadi, Aksiya limiti tugagandan so‘ng (50.000 elektron pul), tranzaksiya summasi qoldig‘iga va keyingi to‘lovlarga Operator tomonidan belgilangan va amalda bo‘lgan keshbeklar tizimi qo‘llaniladi.
15. Mazkur Qoidalarning 11-bandida ko‘zda tutilgan xatti-harakatlar bajarilmagan taqdirda, Aksiya Ishtirokchisi Aksiya shartlarini bajarmagan hisoblanadi hamda unga tegishli ravishda 10% oshirilgan keshbek hisoblanmaydi va hisobiga yozilmaydi.
16. Agar Tashkilotchi Ishtirokchilar tomonidan Aksiya Qoidalari buzilishi holatlari haqidagi faktlardan xabar topsa (mazkur Qoidalar, “A-Pay” elektron pullar tizimida Aksiyalarni o‘tkazish Qoidalari, “Keshbek” sodiqlik dasturi Qoidalariga rioya qilmaslik, firibgarlik holatlari, Aksiyada g‘irromlik bilan ishtirok etish, bila turib yolg‘on ma‘lumotlar taqdim etish va boshqalar), bunday Ishtirokchilar Aksiya Ishtirokchilari qatoridan chiqariladilar va 10% oshirilgan keshbek olish huquqidan mahrum qilinadilar.
17. Tashkilotchi o‘z xohishiga ko‘ra, bir tomonlama tartibda, istalgan vaqtda, oldindan ogohlantirmasdan va sabablarini tushuntirmasdan, Aksiyani o‘tkazishni to‘liq yoki vaqtincha to‘xtatib turish, shuningdek, ushbu Qoidalarga har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Aksiyani

muddatidan oldin tugatish, to'xtatib turish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish e'tirozlarga sabab bo'lishi mumkin emas.

18. Aksiyani o'tkazish muddatidan oldin to'xtatilgan taqdirda, Tashkilotchi bu haqda amaldagi va (yoki) potensial Ishtirokchilarni tegishli ma'lumotlarni o'zining <https://www.a-pay.uz> manzilidagi rasmiy veb-sahifasida joylashtirish orqali, shuningdek boshqa usullar bilan ommaviy ravishda xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

19. Tashkilotchi ushbu Qoidalar, "A-Pay" elektron pullar tizimida Aksiyalarni o'tkazish Qoidalari, "Keshbek" sodiqlik dasturi Qoidalaridan chetga chiqadigan tushunmovchiliklar, noto'g'ri talqinlar, taxminlar yoki fikr-mulohazalar natijasida yuzaga kelgan har qanday da'volar yoki ko'rilgan ziyonlar uchun javobgar bo'lmaydi.

20. Har qanday savollar, tushunmovchiliklar yoki boshqa bahsli vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Aksiya Ishtirokchisi Tashkilotchiga murojaat qilish orqali ularni aniqlashtirish / hal qilish bo'yicha barcha choralarni ko'rishi kerak.

21. Tashkilotchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fors-major holatlari, shu jumladan suv toshqini, yong'inlar, ish tashlashlar, zilzilalar yoki boshqa tabiiy omillar; ommaviy epidemiyalar; davlat yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning farmoyishlari va Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa obyektiv sabablar yuzaga kelgan taqdirda Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchilari oldida javobgar bo'lmaydi.

22. Agar Aksiya har qanday sabablarga ko'ra, shu jumladan kompyuter tarmog'i (texnik sabablarga ko'ra) bilan bog'liq sababga ko'ra o'z faoliyatini to'xtatib tursa yoki to'xtatsa, Aksiya Ishtirokchisi Tashkilotchi ko'rilgan har qanday ziyon uchun javobgar bo'lmasligiga rozilik bildiradi.

23. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan xatti-harakatlarning bajarilishi fakti Aksiya Ishtirokchisining uning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga, elektron pochta, shaxsiy kabinet, telefon, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar orqali xabarlarini, Tashkilotchidan ushbu Aksiyaga, boshqa Aksiyalarga va Tashkilotchining boshqa ma'lumotlariga taalluqli reklama va xat-xabarlarini olishga roziligini nazarda tutadi. Ishtirokchining roziligi amal qilish muddati cheklanmagan holda Tashkilotchiga beriladi. Ishtirokchi istalgan vaqtda Tashkilotchini yozma ravishda xabardor qilgan holda o'zining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga bergan roziligini qaytarib olish huquqiga ega. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga rozilikni qaytarib olish Ishtirokchining Aksiyada kelgusida ishtirok etishdan bosh tortishini bildiradi.

24. Ishtirokchi tomonidan mazkur Qoidalarda ko'rsatilgan xatti-harakatlarning amalga oshirilishi Ishtirokchining "10% oshirilgan keshbek" Aksiyasi Qoidalariga, Ommaviy Oferta hisoblanadigan "A-Pay" elektron pullar tizimida Aksiyalarni o'tkazish Qoidalariga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.

25. Tashkilotchi: Ishtirokchi tomonidan Aksiya shartlariga rioya qilinmaganligi, o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun; Ishtirokchi xatolarining oqibatlarini (boshqalardan tashqari), u tomonidan qilingan xarajatlar; uchinchi shaxslarning harakatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

26. Ushbu Qoidalar Aksiyaning yagona rasmiy Qoidalari hisoblanadi. Qoidalarni har xil talqin qilishga sabab bo'ladigan vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, bunday talqin qilish va/yoki tushuntirish to'g'risidagi yakuniy qaror bevosita va faqatgina Aksiya Tashkilotchisi tomonidan qabul qilinadi.

27. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmaydigan boshqa har qanday holatlarda "A-Pay" elektron pullari tizimidagi Aksiya o'tkazish Qoidalari, shuningdek "Keshbek" sodiqlik dasturi Qoidalari amal qiladi.

28. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlarda, Aksiya Tashkilotchisi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladi. Tomonlarning javobgarlik choralari, shuningdek nizolarni hal etish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga talablariga muvofiq belgilanadi.